



O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi
IMOM BUXTORIY XALQARO ILMIY-TADQIQOT MARKAZI

IMOM BUXTORIY SHBOQLARI

Ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy-adabiy jurnal



25
2000-2025 YOSHDA
JURNAL

2025/1



www.bukhari.uz

№1
2025

IMOM BUXORIY SABOQLARI

Ma'nnaviy-ma'rifiy, ilmiy-adabiy jurnal



O'ZBEKISTON – MALAYZIYA: DINIY-MA'RIFIY SOHA RIVOJIDAGI HAMKORLIK ALOQALARINING YANGI DAVRI

Batafsil **BUKHARI.UZ** saytida

TAHRIR HAY'ATI

- Akmal SAIDOV – yuridik fanlari doktori, akademik
- Shayx Nuriddin XOLIQNAZAR – O'zbekiston musulmonlari idorasini raisi, muftiy
- Firdavs ABDUXOLIQOV – Islom sivilizatsiyasi markazi direktori, san'atshunoslik fanlari doktori
- Davronbek MAXSUDOV – tarix fanlari doktori, professor
- Ahadjon HASANOV – tarix fanlari doktori, professor
- Bahrom ABDUHALIMOV – tarix fanlari doktori, professor
- Baxtiyor TURAYEV – falsafa fanlari doktori, professor
- Baxtiyor KARIMOV – falsafa fanlari doktori, professor
- Ilhom SAIDOV – tarix fanlari doktori, professor
- Zohidjon ISLOMOV – filologiya fanlari doktori, professor
- Zohidullo MINAVVAROV – siyosiy fanlar doktori, professor
- Jamoliddin KARIMOV – tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori
- Nodirjon ABDULAHATOV – tarix fanlari doktori
- O'ktambek SULTONOV – tarix fanlari doktori
- Baxtiyor ERGASHEV – tarix fanlari doktori
- Amriddin BERDIMURODOV – tarix fanlari nomzodi
- Mahmud NASRULLAYEV – tarix fanlari nomzodi, dotsent
- Sarvar ABDULLAYEV – falsafa fanlari nomzodi, dotsent
- Shahzod ISLOMOV – tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori
- Otobek MUHAMMADIYEV – tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori, katta ilmiy xodim
- Ashirbek MO'MINOV – tarix fanlari doktori, professor (L.N. Gumilev nomidagi Yevroosiyon milliy universiteti)
- Devin DeWeese – Indiana universiteti professori, yozuvchi (AQSH)
- So'nmez KUTLU – Anqara universiteti professori, ilohiyotchi (Turkiya)
- Ingeborg BALDAUF – Gumbold nomidagi Berlin universiteti professori (Germaniya)

*IBXITM Ilmiy kengashining 2025-yil 26-fevraldagagi
1-sonli yig'ilish qarori bilan nashrga tavsiya qilindi.*



MUASSIS:

O'zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi huzuridagi
**IMOM BUXORIY XALQARO
ILMIY-TADQIQOT MARKAZI**

Bosh muharrir:
Shovosil ZIYODOV

Muharrir o'rinoslarli:
Otabek MUHAMMADIYEV,
Sanjarbek DJUMANOV

Musahhihlar:
Anvar BOBOYEV,
Asliddin MUSTAFOYEV

Sahifalovchi-dizayner:
Muhammadiqbol SHUKUROV

Azim ZOYIROV,
Rustam MAHMUDOV
olgan suratlardan foydalanildi.

*Jurnal O'zbekiston
Respublikasi Vazirlar
Mahkamasi huzuridagi
Oliy attestatsiya
komissiyasining ilmiy
jurnallar ro'yxatiga kiritilgan.*

*Maqolada keltirilgan
ma'lumotlar uchun
muallif mas'ul.*

MUNDARIJA (2025/1)

Шовосил ЗИЁДОВ, Мавлуда КАРИМОВА.
Марказий Осиё ҳудудида фаолият юритган
мухрканларга оид айrim маълумотлар.....3

БАТАНИМИЗ ТАРИХИ

Нигора ЮСУПОВА. Ўзбекистон зиёратгоҳлари тарихига назар: “Шоҳ Мансур ва Шоҳ Носир” зиёратгоҳлари.....6

Shokir GOFFOROV. From the history of the madrases of Uzbekistan.....8

Зуҳра АРИПОВА. Мисрдаги иккинчи туркий суола - Ихшидийлар ҳақида.....14

Oybek KLICHEV. Buxoro amirligi hukumating maxsus mirzaxonalari.....17

Шукурилло УМАРОВ. Мовароуннаҳрга ислом динининг кенг ёйилиши ва унинг босқичлари.....21

Odiljon BOYNAZAROV. Identifying elements of medieval cultural development in the study of the Samanid dynastic mausoleum in Bukhara (IX-X centuries).....24

Nargiza SODIQOVA. Buxoro amirligida maorif sohasini isloҳ qilishda tatar ma'rifatparvarlarning roli.....27

Дилмурод КУЛМАТОВ. Заرافшон ҳавзаси аҳолиси этник таркиби шаклланишининг тарихий босқичлари.....32

Bobur TOJUYEV. XIX asrning birinchi yarmda Buxoro amirligi va uning ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayoti Aleksandr Byorns nigoхida...36

Нодира САФИХОДЖАЕВА. Ўзбекистонда меҳрибонлик уйларига хайрия ва ҳомийликнинг ортиши.....40

АЖДОДЛАР ИЛМИЙ МЕРОСИ

Нодиржон АБДУЛАҲАТОВ. Хожа Аҳмад Ясавийнинг “Шаби Ялдо” муножоти.....46

Абдумалик ТҮЙЧИБАЕВ. Имом Термизий бўйича Туркияда амалга оширилган илмий тадқиқотлар.....49

Нигора РАҲИМЖОНОВА. Маҳмудхўжа Беҳбудий диний қарашларида ислоҳ масаласи.....56

Lutfillo АХАТОВ. Mavlono Jomiy tasavvufiy-irfoniy qarashlari tahlili.....60

Хабибулло САГДИЕВ, Мухаммадбилол КАРИМОВ. Опора сунны среди суфиев из Исфахана.....64

Nurmuhammad MATKARIMOV. Mashhur qiroat imomlari: ularning hayoti va ilmiy merosi.....67

Abdulhay XUSHVAQTOV. Alloma Jaloliddin Suyutiy hayoti va uning ilmiy merosi.....71

Abubakr MUSTAFOYEV. Hanafiy mazhabida hadis rivoyat qiluvchi kishiga qo'yilgan shartlar.....75

НОДИР МАНБАЛАР

Ulug'bek IMOMOV. XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlari Samarqand tarixining xorijiy mamlakatlar tarixshunosligida yoritilishi.....81

ИСЛОМ ВА ҲОЗИРГИ ЗАМОН

Илҳомжон БЕКМИРЗАЕВ, Яҳё АБДУРАҲМАНОВ. Имом Бухорийнинг “Саҳиҳ”ларига нисбатан салбий фикрларга қарши фатволар ҳамда мазкур китобнинг маънавий ва жисмоний фойдалари борасидаги қарашлар...86

Жамшид ОЧИЛОВ. Замонавий техник кашфи-ётларнинг ислом манбаларида баён этилиши.....89

Муслим АТАЕВ. “Етти Қози” феноменининг моҳияти ва ислом оламидаги нуфузи.....93

Hikmet GÜLTEKİN. Абу Бакр Муҳаммад ибн Абу Исҳоқ ал-Гулободий ва ҳадис хикояси.....101

ИЖТИМОЙ ИНСТИТУТ

Xurshida BOBOQULOVA, Gulnigor IBRAGIMOVA. O'zbekistonda fuqarolik jamiyatni tarixini o'rganish va tahlil qilsh.....106

Maftuna RAJABOVA. O'zbekiston ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotining yangi bosqichida diniy bag'rikenglikni ta'minlash masalalari.....111

Беҳзод СОИПОВ. Диний бағрикенглик сиёсатини олиб бориш бўйича ривожланган давлатлар тажрибаси.....114



ФАЛСАФИЙ МУШОҲАДАЛАР

- Shaxlo SAMANOVA. Tabiat va inson munosabatlarida ma’naviy-axloqiy begonalashuvni oldini olishning muhim jihatlari....118
Бахтиёр ТУРСУНОВ. Сукрот фалсафасида комил инсон концепциясининг рационал талқини.....121
Adxamxo‘ja ABDULLAXO‘JAYEV. “Qarz” musaddasining tarixiy va zamonaviy kontekstdagi ijtimoiy-falsafiy tahlili.....124

Hulkar RAJABOVA. Qissalarda realistik ruhiyat talqini (Xoliyor Safarovning “Qanotsiz qushlar” qissasi misolida).....129

МАЪНАВИЙ ТАҲДИДЛАРГА ҚАРШИ КУРАШ

- Отабек МУҲАММАДИЕВ. Ҳадисларни инкор этиш сабаблари ва оқибатлар.....132
Аловуддин ФАХРИДДИНОВ. Киссавурлик жиноятини фош этишнинг тарихий шаклланиши.....140
Улугбек НАСРИДДИНОВ. Миграция жараёнида ёт гоялар таъсирига тушиб қолган шахслар портрети.....147



ўз фикрини далиллайди. Табиийки, бу усул ўз даврининг маърифатпарвар уламоси учун хос бўлиб, диннинг халқ учун муҳим омиллигини ҳисобга олган ҳолда, унинг таъсирили бўлишини таъминлар эди. Беҳбудий ҳаж ва бошқа хорижга сафарлари асосида нафақат Туркистон, балки неча юз миллион мусулмон халқларнинг диний ва дунёвий ҳёт тарзини кўриб, кўплаб уламо ва маърифатпарварлар билан танишиб, ислом оламининг аҳволидан хабардор бўлади. Табиийки, бу сафарлар, унга мусулмон оламини яхлит бир уммат сифатида кўриб, ислоҳ ва тараққиётга чорловчи ўз даврининг ислоҳотпарвар уламолари фикр ва қарашлари билан танишиш имконини ҳам берган эди.

Хулоса. Маҳмудхўжа Беҳбудий мустамлака шароитида ислом соғлигини сақлаш, турли маросим ва урф-одатларнинг ислом динига нечоғли алоқадорлигини тўғри анграб етиш, турли бидъатларга қарши курашиш масалаларида халқقا тўғри йўл кўрсатиш, Куръони карим, ҳадислар асосида, ҳанафия мазҳаби доирасида тушунтиришлар беришга ҳаракат қилган. Бунинг учун эса, диний таълимни тўғри ташкил этиш, ислом асосларини чуқурроқ ўргатиш ва бу орқали халқни маърифатли қилишга чорлаган. Яъни ислом дини илм-маърифат, жамият ва давлат ривожи учун тўғоноқ эмас, аксинча ислом илм-фан ҳомийси ва рағбатчиси бўла олишини ўз диний қарашлари орқали кўрсатиб бера олган.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. Беҳбудий М. Бизга ислоҳ керак // “Нажот” газетаси. 1917. № 7.
2. Беҳбудий М. Фельетон. Эҳтиёжи миллат // Туркистон вилоятининг газети. 1909. № 75.
3. Василий С. Ҳар бир мусулмоннинг араб тилига ошно бўлиши зарур // Ал-ислоҳ. № 5. 123. – 1916. – Б.123.
4. Зиёева Д.Х. XIX аср охири –XX аср бошларида Туркистонда анъанавий таълим тизими муаммолари // Ислом университети ахборотномаси. №1. 2009.
5. Кийим ва ташаббух масаласи // “Ойина” журнали. 1914 йил 14 июнь. 34-сон.
6. Маҳмудхўжа Беҳбудий. Туркистон маданий мухторияти лойиҳаси // “Жаҳон адабиёти” журнали. Нашрга тайёрловчи Б.Қосимов. 2003 йил. 8-сон. – Б.149.
7. Эргашева М. Маҳмудхўжа Беҳбудий қозилар фаолияти ва уларнинг ҳукуқий мақоми тўғрисида // Маҳмудхўжа Беҳбудий меросининг миллий ғоз тарғиботидаги аҳамияти” илмий мақолалар тўплами. – Т.: 2014. – Б.98.
8. Маҳмудхўжа Беҳбудий. Танланган асарлар. Ингеборг Балдауф. Маҳмудхўжа Беҳбудий Фаластинда. Нашрга тайёрловчи, тўпловчи, сўзбоши, изоҳлар муаллифи Б.Қосимов. – Т.: Матнавият, 2006. – Б.266.
9. Маҳмудхўжа Беҳбудий. Андиконда яна бир эшон // Туркистон вилоятининг газети. № 72. 1907
10. Маҳмудхўжа. Сарт сўзи мажхӯлдир // “Ойина” журнали. №26. 1914 йил 19 апрель.
11. Маҳмудхўжа. Тарих ва ҳуҷрофия // “Ойина” журнали. 27-сон. 1914 йил 3 апрель.
12. Усули жадид мактаблари учун босилган китоблар // “Самарқанд” газетаси. № 31. 1913 йил 30 июль.
13. Ҳожи Муин. Маҳмудхўжа Беҳбудий. // “Учқун” журнали. № 1. 1923.

Lutfillo AXATOV

Chirchiq davlat pedagogika universiteti dotsenti, falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

MAVLONO JOMIY TASAVVUFİY-IRFONİY QARASHLARI TAHLİLİ

Annotatsiya: *Falsafiy-irfoniy qarashlar mohiyati so'fiylar hayoti va tasavvufiy qarashlar yordamida tahlil qilingan. Tasavvufning rivojlanishi so'fiylik axloqi orqali irratsional yondashuvga asoslangan falsafiy mushohada shaklida amalga oshiriladi. Bunda axloqiy qarashlaranni anglash uchun tasavvuf va so'fiylarga ilmiy yondashuvlar misolida qaraldi. Tayanch so'zlar: Axloq, tasavvuf (arab.: التصوّف), so'fiy, ilm, islam, idrok, irfon, falsafa.*

Annotation: The essence of philosophical and Irfan views was analyzed with the help of Sufi life and mystical views. The development of Sufism takes place in the form of philosophical observation based on the irrational approach through Sufi ethics. To understand ethical views, an example of scientific approaches to Sufism and Sufis was considered. **Keywords:** ethics, Taşawwuf (Arabic: التصوّف), Sufi, science, Islam, perception-mentally, Irfan, philosophy.

Аннотация: Сущность философско-ирфанических взглядов анализировалась с помощью суфийского быта и мистических взглядов. Развитие суфизма происходит в форме философского наблюдения, основанного на иррациональном подходе посредством суфийской этики. Для понимания этических взглядов был рассмотрен пример научных подходов к суфизму и суфиям. **Ключевые слова:** этика, суфизм (араб.: التصوّف), суфий, наука, ислам, восприятие-мысленно, ирфан, философия.

Kirish. Falsafiy-irfoniy qarashlarning muhim aspekti bo'lib xizmat qiluvchi, tasavvuf-so'fiylikning o'ziga xosligiga, ma'lum ma'noda, shaxsning yuksak axloq egasi bo'lishiga va komillikka xos sifatlar bilan bezanishiga undovchi “dastur” sifatida qaraladi. “So'fizm O'rta asrlar jamoasida maxsus ijtimoiy-

mafkuraviy va ontologik xususiyatga ega o'zигагина xos nazariy tizim bo'lgani uchun, keyingi o'n yilliklarda sharqshunos, islamshunos, faylasuf, adabiyotshunos va tarixchilarning diqqat markaziga ko'chdi” [8:7].



Adabiyotlar tahlili. Ma'lumki, Abdurahmon Jomiy falsafiy-irfoniy qarashlarga xos naqshbandiya-tasvvufga oid asalari orqali ko'plab ma'lumot bergen. "Mavlono Jomiyning yana bir qator tasavvufiy-irfoniy asarlari ham borki, ularni o'rganmasdan turib, naqshbandiya tariqatining falsafiy-irfoniy va ilmiy-nazariy asoslari va umuman, tasavvuf falsafasining 700 yillik (2008 yilgi ma'lumot) tajribalarini o'rganish va bu haqda mukammal tasavvurga ega bo'lish mushkul" [1:293-296].

Bundan ko'rinish turibdiki, tasavvuf va so'fiylik ta'lilotlariga oid mavzu doirasidagi izlanishlarni amalga oshirishda mamlakatimiz va xorij olimlari tadqiqotlardan keng foydalanilgan bo'lib, ular orasidagi mushtaraklik saqlanib qolgan. Biz Abdurahmon Jomiy ilmiy merosida talqin etilgan naqshbandiya-tasavvufga oid ma'lumotlarning agiografik⁸⁹ jihatlarini ham hisobga olishimiz lozim.

Markaziy Osiyoda tasavvuf ta'lilotining shakllanishi va rivoji Abu Abdurahmon Sullamiy, Abdulloh Ansoriy Xaraviy, Xujviriy Jullabiy, Kalabodiy nomlari bilan bog'liq. Ilk o'rta asrlardagi buyuk mutafakkirlardan biri Imom Termizi o'zining yetuk donishmandligi, ilm-fanning turli sohalarida mashhur bo'lgani uchun zamondoshlari uni al-Hakim deb ardoqlagan. Tasavvuf tarixida esa Hakimiya tariqati asoschisi sifatida mashhur bo'lgan. Ba'zi mutaxassislar bu tariqatning mukammalligini e'tirof etib, uni hatto mazhab deb ham ta'riflagan [9:135].

Ilm yo'lida ba'zi mazhab – yo'naliishning shakllanishi qandaydir g'araz maqsadda emas, balki ilmning yuksalishiga asos bo'lib xizmat qilishi ham mumkin. Mazhab darajasida e'tirof etilgan sohalarning anqlik darajasi isbotlansa, ma'lum ma'noda yuksalish (hanafiy, molikiy, hanbaliy, shofeiy kabi) ro'y beradi. Mabodo bu yo'naliishga shubha bilan qaralsa, demak bu yangi ilmlar shakllanishiga turtki beradi. Irfon ilmi Sharq mintaqasi musulmon xalqlarining ma'naviy hayotida muhim pozitsiyani egallab kelmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Ko'plab falsafiy-irfoniy qarashlarni o'rganish uchun alohida yo'l – usulning tanlanishi bu ma'lum ma'noda tahlil qilinadigan davrning o'rni va ahamiyati bilan bog'liqdir. Shuning uchun, odatda ma'lum bir tadqiqotining tasniflanishi o'sha davrning ijtimoiy muhiti bilan davrashtiriladi. Mavlono Jomiy ilmiy merosida tasavvufga oid (so'fiylik) ma'lumotlar keng yoritilgan. Unda e'tiqodiy (avliyolar to'g'risidagi ma'lumotlar) manbalar asosida islom aqidasiga ko'ra mo'jiza va karomat haqligi tadqiq

qilinadi. Shuning uchun, ba'zi mutafakkirlar ilmiy merosida bu jarayon an'anaviy – tazkirananavislik tarzida tatbiq etiladi. Unga ko'ra, ko'plab "hodisa"lar metafizik – g'aybiy xarakterga asoslangan holda qiyoslanadi. Mo'jiza Payg'ambarlar tomonidan Allohnning qudrati bilan amalga oshiriladigan va inson aqli yetmaydigan hodisalar bo'lsa, avliyolarning bu kabi ishlari karomat deyiladi. Bular umumiylar xavoriqi odat – g'ayriodatiy, g'ayritabiyy ishlar, deb ataladi. Masalan, duolar ijobati, g'ayb sirlaridan ogoh bo'lish, inson ko'nglidagi o'yni anglash, suv va taomsiz ro'za tutish, bir lahzada dun-yoning u chetidan bu chetiga borib qolish kabi oddiy inson aqli uchun g'ayritabiyy bo'lgan holatlar avliyolarga xos bo'lib, ularni ko'p oshkor qilmaslik valiyning yuksak maqomini bildiradi.

Shundan so'ng bevosita valiylarning nomlari va tarjimai holi bilan bog'liq ma'lumotlar keltiriladi. Nom zikr etilgan ilk valiy zot – avliyolar sultoni deb ulug'langan Uvays Qaraniydir. Uvays Qaraniyning Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallamga g'oyibona oshiq bo'lgani, uning kuchli va mustahkam muhabbatni barcha islom ummati uchun ibrat hisoblanadi.

Asarda avliyolarga doir ma'lumotlar turli hajmda bo'lib, ba'zilari haqida bir jumla bilan kifoyalansila, ba'zi shayxlar ta'rifiga keng o'rin ajratiladi. Avliyolarning tarjimai holidagi ma'lumotlar muayyan mezonzlarga ega emas: ayrim shayxlarning yashagan yillari, joyi, kasb-kori va hokazolar bilan bog'liq ma'lumotlar batafsilroq keltirilsa, ba'zilarining faqat karomat yoki o'gitlaridan parcha beriladi.

Tazkirada asosiy e'tibor valiy zotning amaliga qaratilgan. Har bir avliyo shariat hukmlarini so'zsiz va itoat bilan ado etib, Haq vasli talabida mol-dunyo tashvishidan, o'z borlig'idan mutlaqo voz kechadi. Bu dunyoga zarracha muhabbat qo'yish Haq ishqiga soya soladi, deb e'tiqod qilinadi. Har bir avliyo haqidagi ma'lumotlar tarkibida arab tilidagi baytlar, hikmatli fikrlar berib boriladi.

"Nasoyimul muhabbat" tarkibida tilga olingan avliyolar orasida islomdagagi to'rt mazhab boshliqlari – Imom A'zam, Imom Molik, Imom Shofeyi, Imom Ahmad ibn Hanbaldan tortib Muhammad G'azzoliy, Bakhuddin Valad, uning o'g'li Jaloliddin Rumiy, Rumiying o'g'li Sulton Valad kabi buyuk zotlar haqidagi turli qiziqarli, ibratli hikoyalarga duch kelamiz. Ushbu avliyolar haqidagi ma'lumotlar ilmiy asosga ega bo'lib, tasavvuf tarixini o'rganishda alohida ahamiyat kasb etadi (Masalan, Jaloliddin Rumiya bolaligida Fariddin Attor o'zining "Asrornoma" asarini hadya qilishi yoki Shamsiddin Tabriziy va Rumiy uchrashuvini bilan bog'liq ma'lumotlar).

Umuman olganda, Hazrat Alisher Navoiyning avliyolar tarjimai holiga bag'ishlangan mazkur "Nasoyimul muhabbat min shamoyimul futuvvat" asari

⁸⁹ Agiografiya – grek: "hagis" muqaddas va "graphe" yozmoq, yozaman, degan ma'nolarni ifodalaydi. Bu termin (ibora) teologik asarlardan ma'lum shaxs, zotni ulug'lash hamda boshqalarga o'xshamagan ma'naviy qiyofasini yoritish uchun ishlataliladi.



shoirning yetuk mutasavvif olim sifatidagi faoliyatini ko'rsatuvchi muhim manbadir [5:29-32].

Alisher Navoiyning mazkur diniy yo'nalishdagi asarlarini o'rganish orqali biz uning dinga munosabati va e'tiqodi bilan bog'liq muayyan ma'lumotlar olish bilan birga, islam ilmlarining yetuk bilimdoni ekanai to'g'risida tasavvur hosil qilamiz. Bu ulug' shoirning o'z davri ijtimoiy hayotida tutgan o'rni nechog'lik muhim bo'lganini belgilab beruvchi o'ziga xos omil ekanai bilan ahamiyatlidir. Jomiy asariga tanqidiy [ijodiy] qaragan Navoiy "burung'i zamondag'i mashoyihdin barchasining zikrin qilmaydurlar va o'z muosirlarining ko'pini ham, o'zlarin ham bitmaydurlar" der ekan, asarda Jomiy, Lutfiy, Ashraf Muflisiy, Shayx San'on, Nosir Xisrav, Nasimiyy va shular qatori Ahmad Yassaviy, Sulaymon Boqirg'oni kabi "turk mashoyixlari" haqida ma'lumot beradi. Asarda Navoiy o'zi ilova qilgan shaxslarning faqatgina so'fiyona qarashlarinigina yoritmasdan, adabiyot va jamiyatdagi o'rnnini belgilashga ham katta e'tibor bergen. "Nasoyimul muhabbat" Navoiyning didaktik qarashlari, tarjimonlik va tadqiqotchilik faoliyati hamda estetik qarashlarini o'rganish uchun muhimdir. "Nasoyimul muhabbat"ning ba'zi nusxalari Toshkent Davlat Sharqshunoslik instituti Sharq qo'lyozmalari markazining fondida (inv. № 3415, 857, 3420, 8514, 1825) saqlanmoqda.

Tahlil va natijalar. Falsafiy-irfoniy qarash orqali mutasavvuflar orasidan fors, arab, turk va bir qancha tillarda ko'plab falsafiy, badiiy, metafizik – ilohiyotga oid asarlar yozgan alloma, shoir va yozuvchilar, donishmand – mutafakkirlar yetishib chiqqanini ko'ramiz. Falsafiy-irfoniy qarashlarning substansional ahamiyati o'laroq, tasavvuf Yaqin va O'rta Sharq mintaqaga xalqlari madaniyatida eng ko'p shakllangan va tarqalgan harakat – oqimlardan biri sanaladi. Islam olami xalqlarining falsafiy-irfoniy fikrini o'rganishda so'fiylik – tasavvuf to'g'risidagi ilm dolzarb ahamiyatga molikdir. Diniy-falsafiy yo'nalish sifatida Irfon ilmini o'rganish Sharq mintaqasi musulmon xalqlari dunyoqarashining shakllanishi va rivojlanishi omilini yanada teranroq yoritish imkonini beradi. Irfon – bu aslida (falsafiy tahlilda) gnoseologiya demakdir.

Abdurahmon Jomiyni avvalo biz shoir sifati, so'ngra esa hikmat ilmining "piri" deb ko'rishimiz kerak. Sababi J.Xolmo'minovning "Jomiydek hanafiylik mazhabi aqoidida mustahkam turib, tasavvuf ta'limotini har xil aqidaparast guruhlardan himoya qilgan Naqshbandiy orif merosini tadqiq etish Islom falsafasining XV asrgacha bo'lgan tadrijiy taraqqiyot bosqichlarini chuoqroq o'rganishimizda katta yordam beradi" degan fikri bunga bir misoldir.

Mavlono Jomiy ma'nnaviy-ilmiy merosining ilk tadqiqotchi va munaqqidi sifatida Navoiy va Loriy (Abdulg'afur Loriy)dan boshlab bugungi jomiyshunos

tadqiqotchilargacha bo'lgan olimlar ushbu masalaga ko'pincha ro'yxatlash va tavsiflash yo'li bilan kirib borgan. Ular aniq bir dastur – tizimga jamlashni unchalik muhim hisoblamay qo'yan.

Mavlono Jomiyning "Shavohidun nubuvvat" nomli asarida aks ettirilgan mavzuni oladigan bo'lsak: "Va az on jumla on ast, ki chun Rasul, sollallohu alayhi va sal-lam, ba hijrat az Makka ba so'i Madina ma'mur shud va on soli chahordahum bud az be'sat. On shab, ki az Makka berun omad, kuffori Quraysh qasdi on doshand, ki chun dar xob shavad, ba xonai vay daroyand va vayro bikushand".

Tarjima: Va ushbu jumlada shunday so'z (gap) bor-ki, Payg'ambar (Muhammad) sollallohu alayhi vasallamning Makkadan Madinaga hijrat qilgan vaqt (yil – L.Axatov) o'n to'rtinchı sana (yil) kechasida Payg'ambar (Muhammad) sollallohu alayhi vasallam uylari (eshiklari) atrofida Quraysh kofirlari u kishini (Payg'ambar Muhammad sollallohu alayhi vasallamni) o'ldirish uchun shaylangan edi.

Chun vaqtı xuftan shud, hamai qavm omadand va bar dari xonai vay, sollallohu alayhi vasallam, muntazir mebudand, to dar xob shavad. On shab avvali surai Yo Sin (پسن) nozil shud.

Tarjima: Shu kechada xufton mahalda, qavm (Quraysh kofirlari) eshik oldiga keldilar va uyquga uxlashlarini kutib turardi. Shu kechada Yosin (پسن) surasi(ning) ilk (avval) qismi nozil bo'ldi.

Rasul, sollallohu alayhi vasallam, mushte xok girift va berun omad va oyati xondan...

[3:1-4] وَجَعَلْنَا مِنْ بَيْنِ أَيْدِيهِمْ سَدِّنَا وَمِنْ خَلْفِهِمْ سَدِّنَا

Ya'ni: Dar peshi ro'i onon va pushti sari onon pardaye qaror dodem va (Yosin surasining oyati) tarjima – Ularning (ko'z) oldilariga va orqa (boshlari) tomon(i)da parda (bilan) tusdek (Yosin surasining oyati) ma'nosida...

Tarjima: Shunda, Payg'ambar Muhammad sollallohu alayhi vasallam bir hovuch xok-tuproq (chang) olib (Qur'ondagi sura (پسن) dan) ushbu oyatni o'qidilar... [10:27- B]

...Muhammadro nadided va on chi bo shumo kard niz. Hama barxostand va xok az saru ro'y meafshondand.

Tarjima: Muhammad sollallohu alayhi vasallamni ko'rmadilar. Hammasi turib, ust-boshini (turpoq-changdan) tozaladi.

Jomiy o'z asarlarida keltirgan ma'lumotlarni (falsafiy-irfoniy qarashlarni) Islomdag'i (Qur'ondagi) aniq dalillarga tayanib, komparativistik tadqiq qilgan.

Keyingisi, Va az on jumla on ast, ki chun on shab Rasul, sollallohu alayhi vasallam, bo Abo'bakri Siddiq, roziyallohu anhu, ba dari g'ore, ki dar jabali Savr bud, rasidand. (Bunda: Jabali Savr – ko'he dar janubi Masjidul haram, ki dar fosilai taqraban 6 km az on qaror



dorad. In ko'h doroi g'ori ma'rufest bo hamin nom, ki Rasululloh, (s.a.v) dar hangomi hijrat, tibqi rojehtarin aqvol se shab az 13 to 15 sentabri soli 622 m. bo Abo'bakr (r.z) on jo pinhon mondand. Tarjima: Savr – Makkadagi Masjid al-haramning janubiy tomonidan taxminan 6 (olti) klometrda joylashgan. Ushbu tog' (g'or)da hijrat vaqtida Payg'ambar (Muhammad) sollallohu alayhi vasallamning Abubakr Siddiq bilan uch kecha, ya'ni 622 yil 13 dan 15 sentyabrgacha bo'lgnalari) e'tirof etiladi [2:293-296]. Tarjima: Va ushbu jumlada shunday so'z (gap) borki, ushbu kecha Payg'ambar Muhammad sollallohu alayhi vasallam Abubakr Siddiq bilan Savr g'origa yetib keldilar. Abo'bakr guft: Yo Rasululloh, man peshtar daroyam, to turo gazande narasad. Tarjima: Abubakr (Siddiq) ayt-di(lar): Yo Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam) oldin man kiray, sizga gazanda (zarar beruvchi)dan ziyon yetmasligi uchun...

Xulosa va takliflar. Ushbu maqolada Abdurahmon Jomiyning tasavvufiy-irfoniy qarashlari so'fiylar hayoti va tasavvufiy qarashlari yordamida tadqiq qilindi. Bu borada Mavlono Jomiy "Vahdatul vujud" nazariyasi asosida ham ijod qilgan degan fikr quyidagicha izohlangan:

Hasrati ki haqiqati Haq omad, al-haq,
Ne onki buvad ba Haq muzofu mulhaq.
Qavme ba ta'aayyunash muqayyad dorand,
Qavmi digar az qaydi ta'aayyun mutlaq [12:100].

Mazmuni: Borliq Haqqa qo'shilgan narsa emas, balki uning haqiqatidir.

Ba'zilar uni "ta'aayyun"ga bog'liq deb biladi, ba'zilar esa "ta'aayyun"ga hech qanday daxli yo'q, deb tushunadi.

Bunday "qarash"larni boshqa mutafakkirlarda ham uchratish mumkin. Bu borada Amir Xusrav Dehlaviyning "Hikmatlar"idan ham bilib olishimiz mumkin:

جان جهان همه عالم تو عى
وانکه نگجد بجهان هم تو عى [1:4].

Ma'nosi:

Olamning hama jabhasida Jon(i) Sen O'zing,
Garchi olamga sig'mas (bo'lsa-da) Jon(i) Sen O'zing.

Bundan ko'rinib turibdiki, ushbu hikmatli so'zlar "Vahdatul vujud" nazariyasiga xosdek tuyulsa-da, unda butun borliq Alloh tomonidan ixtiyor etilgan (vujudga keltirilgan)ligiga ishora bordir [12:1-4]. Xusrav Dehlaviyning ham talqinidagi Olam – Borliqning birinchi sababi (Joni) bu Alloh hisoblanishiga ishora qilinmoqda. Bunda borliq Alloh tomonidan yaratilganiga ishora demak. Bu Jon olam – borliqqa sig'mas deb talqin qilinmoqda. Allohnning Zoti yakka-yu yagonadir. Shuning uchun bu Jon (Alloh) buyuklik kashf etgani sabab, olamga sig'mas (Muso a.s. talqini-dagi Allohnning jamolini ixtiyor etishi misolida ham bor...) yagonalik kasb etgay (matn tarjimasi muallif L.Axatovga tegishli).

Matnni Shoislom Shomuhamedov quyidagicha tarjima qilgan:

Joni jahoni olam, odam, o'zing,
Olama sig'mag'uchi jon ham o'zing [11:5].

Bu baytdan ham ko'rinib turibtiki, Joni jahoni olam – Borliq (jahon)ning Joni (vujudi), odam – insonlar jismida va jonida (mubaddal) ham, O'zing (Alloh) borsan, Olama sig'mag'uchi Borliqqa – olamga sig'mas (undan ustun) Jon (Vujud) ham O'zing, deb sharhlangan.

Aslida: Alloh insonni yaratganda unga ruh (Jon) pufladi deb aytildi... odam-insonlar ruhi (Joni)dan maqsad – Allohnning Odamni yaratganda O'z ruhidan Jon kirgizganiga ishora demak... Insonlar jismida deb bilmaslik kerak!

Hikmat shuki, falsafiy-irfoniy qarashlar mohiyati – bu tafakkur taraqqiyotining ilmiy-gnoseologik tahlili-ning yadrosi bo'lmog'i lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- Akhakov Lutfillo. Tolerance and Islamic mysticism in the works of Jami. Novateur publications JournalNX. A Multidisciplinary Peer ISS NR eNvoie: wed Journal. Volume 6, Issue 5 2, 5M8a1y – 24203200.
- Akhakov Lutfillo. Tolerance and Islamic mysticism in the works of Jami. Novateur publications JournalNX. A Multidisciplinary Peer ISS NR eNvoie: wed Journal VOLUME 6, ISSUE 5 2, 5M8a1y – 24203200.
- Akhakov Lutfillo, Madalimov Timur and Xaytmetov Raimberdi. The spiritual connection of sufism and tolerance in the works of Jami. International journal of multidisciplinary research and publications (IJMRAP), Volume 2, Issue 11, 2020.
- Akhakov. The problem of tolerance in oriental philosophy. Multidisciplinary peer reviewed journal 6.7 (2020): 130-133. Web.
- Akhakov Lutfullo. A symbol of tolerance and friendship in Jamiy's work "Bahoriston". "International journal of current science research and review. 3: 29-32. Web. Apr. 2020.
- Akhakov L. The problem of human psychological crises in the views of Emil Durkheim. Наука образование и культура, 50(6).
- Akhakov L. A symbol of tolerance and friendship in Jamiy's work "Bahoriston". International journal of current science research and review, 1(1), 29-32.
- Пўлатов X., Маматов М. Тасаввуб тарихидан лавҳалар. – Т.: Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти. 2011.
- Шайх Мухаммад Содик Мухаммад Юсуф. Тасаввуб хакида тасаввуб. – Т.: Шарқ, 2012.
- Жомий. Нафаҳот ул унс мин ҳазарот ал кудс. – Т.: 1913.
- از حکمت های امیر خسرو دهلوی ترتیب دهنده و مترجم شاه محمد تقاشکن اداره نشریات پاشر گواریدا - 4- 1973 سیفیه
- Холмүминов Ж. Жомий ва ваҳдат ул-вужуд таълимоти. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – Б. 100; Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси Шарқшунослик институти Кўлёзмалар хазинаси, РН 1331 ракамли қўлёзма. – В.598.





MALAYZIYA VA O'ZBEKISTON
ILMIY-TADQIQOT
MUASSASALARI O'RTASIDAGI
HAMKORLIK YANGI
BOSQICHGA KO'TARILADI

Batafsil **BUKHARI.UZ** saytida

2025-YIL UCHUN JURNALIMIZGA OBUNA DAVOM ETMOQDA!

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi
huzuridagi Imom Buxoriy xalqaro
ilmiy-tadqiqot markazi rekvizitlari:

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligi
H/r: 23402000300100001010
INN (STIR): 201122919 MFO: 00014
Markaziy bankning Toshkent shahar XXKM
SHHV: 400110860182247015100253001
INN (STIR): 207265166

Murojaat uchun telefon: (0366) 240 2019



Obuna indeksi –
№ 946, 947
Bir yillik obuna narxi –
360 000 so'm



MANZILIMIZ:
141306, Samarqand viloyati,
Payariq tumani, Xo'ja Ismoil shaharchasi.

E-mail: buxoriysaboqlari@bukhari.uz
Web-sahifa: www.bukhari.uz
Telefonlar:
(0366) 240-2019, (0366) 240-2011,
(+99899) 735-02-85

Bosishga 24.03.2024 yilda ruxsat berildi.
Qog'oz bichimi – 60x84 1/8.
Ofset bosma usulida bosildi.
Bosma tabog'i – 10. Adadi – 150.
Buyurtma № 14/12.
Nashr indekslari – № 946, № 947.
ISSN 2181-4791

Jurnal 2019-yil 8-aprelda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№ 0057 raqami bilan ro'yhatga olingan.

Bir yilda to'rt marta chop etiladi.

Jurnaldan ko'chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Tahrir hay'atining fikri muallif fikridan farq qilishi mumkin.

Jurnal andazasi tahririyatning kompyuter bo'limida
tayyorlandi.

Jurnal «SHABNAM SUPER PRINT» MCHJ
bosmaxonasida chop etildi.
Manzil: Samarqand shahri, Ziyorolar ko'chasi, 1-uy.
Tel.: (+99890) 104-13-33.

DUNYODA ILMDAN BOSHQA NAJOT YO'Q VA HECH QACHON BO'L MAGAY.

Imom Buxoriy



Telegram: @bukhariuz | @buxoriysaboqlari



E-mail: buxoriysaboqlari@bukhari.uz